

POLAND

INTERNATIONAL SCIENTIFIC
ONLINE CONFERENCE

SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH

 30 OCTOBER
2022 YEAR

POLAND, VARSHAVA



ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES



SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH

International scientific-online conference

Part 3

October 30th

COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

WARSAW 2022



| | |
|--|------------|
| Don A.N. Turdaliev K. <i>PATHOGENESIS OF ATHEROSCLEROSIS: CURRENT VIEWS. REVIEW.</i> | |
| Салохиддинова Лойло Ҳақимова Манзура Бобаматов Абдуғани <i>МАШИНАСОЗЛИК МАҲСУЛОТЛАРИДА СИФАТ КЎРСАТКИЧЛАРИ</i> | 123 |
| Yuldasheva Shaxnoza Akramjon qizi Ne'matjonova Nixolabonu Jasurbek qizi <i>PAXTA XOMASHYOSINI ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI ANIQLASHNING NAZARIY VA USLUBIY MASALALARI</i> | 128 |
| T. Abdrakhmanov Z. Jabbarov. O Fayzullayev G. Berdikulova F. Zokirova <i>THE DEVELOPMENT OF SALT TOLERANT PLANTS IN THE SOILS OF THE ISLAND BOTTOM REGION AND THE IMPORTANCE OF BIOREPAIRS</i> | 131 |
| Kurbanova Mohinur Xabib qizi <i>DESTINATSIYADA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MINTAQAVIY MODEL I</i> | 134 |
| Nishanova A.A Don A.N Sharipova P.A Reimnazarova G.D <i>STRUCTURAL METAMORPHOSIS OF THYROID STATUS INITIATED BY SAPONIN INTRODUCTION.</i> | 139 |

DESTINATSIYADA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MINTAQAVIY MODELI

Kurbanova Mohinur Xabib qizi

Buxoro Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada innovatsion turistik xizmatlar nazariy jihatdan asoslanib, Buxoro destinatsiyasidagi ziyoratgohlarda innovatsion turistik xizmatlarni joriy etishda duch kelinadigan muammo va to'siqlar tadqiq qilinib, hududda potensial turistik xizmatlarni yo'lga qo'yish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslangan, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *ziyorat turizm, innovatsiya, barqaror rivojlanish, innovatsion turistik xizmatlar, turistik xizmatlar diversifikatsiyasi.*

Ziyorat turizm mehmondo'stlik sanoatining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, ko'p davlatlar dunyoning turli burchaklaridan dindorlarni jalb qilishga harakat qilib, ularning dinlariga mos ravishda qulayliklar va shart-sharoitlarni yaratib kelmoqdalar. O'zbekistonda ham butun dunyo musulmonlarini mamlakatga jalb qilish uchun bir qator chora-tadbirlar rejasini amaliyotga joriy etib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi CrescentRating kompaniyasi bilan respublikadagi mehmonxona va restoranlarni Muslim friendly reytingiga kiritish bo'yicha muzokaralar olib bormoqda, ziyoratgohlarda Buxoro viloyati madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish inspeksiyasi bilan hamkorlikda restavratsiya ishlari olib borilmoqda. 2021-yil 24-fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida uzoq xorij va qo'shni respublikalardan xorijiy turistlarni qabul qilish va ularga qulay shart-sharoitlar yaratishda ziyorat turizmi infratuzilmasini rivojlantirish, ziyorat turizmi marshrutlarida foydalaniladigan madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish, xorijiy tillarga tarjima qilinadigan va targ'iboti keng amalga oshiriladigan, allomalar va ziyoratgohlar to'g'risidagi filmlar suratga olish, Buxoro viloyati "Yetti Pir" ziyoratgohlariga boruvchi ichki yo'llarni to'liq ta'mirdan chiqarish ustuvor masalalar etib belgilandi, O'zbekistonning ziyorat turizmi salohiyatini to'liq o'rganish, ma'lumotlarni tizimlashtirish, ziyoratgohlar, ulamolar va ularning ilmiy merosi haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlarni shakllantirish, respublikaning ziyorat turizmi yo'nalishidagi salohiyatini yurtimizda va xorijda targ'ib qilishga oid ilmiy risolalar, reklama, rolik va targ'ibot materiallari tayyorlash; ekspertlar, olimlar, ommaviy axborot vositalari vakillari va talabalarni jalb qilgan holda muntazam ravishda ziyorat turizmi yo'nalishida targ'ib qiluvchi tadbirlarni tashkil etish choralarni ko'rish; xorijiy mamlakatlarda tashkil etiladigan respublikaning ziyorat turizmi salohiyatini targ'ib qilish imkoniyati bo'lgan xalqaro ko'rgazmalarda doimiy ravishda milliy stend bilan ishtirok etib borish kabi vazifalar mas'ul idoralarga birlashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 aprelda qabul qilingan "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida mas'ul davlat tashkiloti idoralariga muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlarni dinlar tasnifi bo'yicha xatlovdan o'tkazib, respublikadagi Muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlarning ro'yxatini shakllantirish, xususiyl turizm tashkilotlari uyushmasi bilan birgalikda Muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlar ro'yxatidagi obyektlarning respublika hududlarining "chorlov nuqtasi" sifatida turizm yo'nalishlariga kiritilishini va keng targ'ib qilinishini ta'minlanishi vazifasi berildi.

Dunyo musulmonlari aholisi soni 1,7 milliard kishini tashkil etadi. Xalqaro musulmon sayohatchilar soni 160 million nafarga yetgan. O'zbekistonda 784 ta islom ziyoratgohi mavjud bo'lib, ularning hammasi ham hududlarning turistik xaritasiga kiritilmagan. 2022-yilda O'zbekistonga 700 000 dan ziyod ziyoratchilarni jalb qilish rejalashtirilgan. Tadqiqotlar davomida aniqlanishicha, ziyoratchilarning 93 foizi sayohat davomida qulay shart-sharoitlar bo'lishini ma'qullagan. Potensial tashrif buyuruvchilarning mustaqil sayohatini tashkil qilishda va ular uchun qulaylik yaratishda interaktiv turistik xaritaning mavjudligi destinatsiya imidjini ommalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Diniy sayohat odamlar imon va e'tiqod masalasini o'zlari uchun kashf qilishlari maqsadida sayohat qilishlaridan boshlangan. Bu diniy namoyishdan, ya'ni "ziyaratdan" boshlanadi, bu yerda "ziyoratchi" diniy motivli turist yoki sayohatchi deb ataladi [3].

Ziyorat - ziyoratchi tomonidan uyushtiriladigan maxsus sayohat; hurmat ko'rsatish uchun boriladigan maxsus joylarga borish; diniy sabablarga ko'ra muqaddas joylarga qilinadigan, ko'pincha uzoq muddatli sayohat [4].

Ziyorat turizm - diniy hodisa bo'lib, unda bir kishi yoki guruh ma'lum bir diniy joyga sayohatga chiqish uchun Xudo va o'sha destinatsiyadagi avliyolarning shafosatini izlaydi [5].


Turizm sohasidagi innovatsiyalarni boshqarish innovatsion jarayonlarni samarali tashkil etish asosida turistik tashkilotlarning maqsadlariga erishish uchun madaniy, iqtisodiy va tadbirkorlik faoliyatining bir turidir. Innovatsiya menejmenti rejalashtirish, marketing, tashkil etish, nazorat qilish va baholash kabi turli funksiyalarni o'z ichiga oladi. Nazorat va baholash innovatsiyalarni boshqarishning asosiy funksiyalaridan biridir. Innovatsion faoliyat natijalarini baholash jarayonida olingan ma'lumotlar nafaqat samaradorlik ko'rsatkichi, balki uni yanada rivojlantirish, tezkor va joriy rejalashtirish strategiyasini ishlab chiqish uchun ham asosdir. Shuning uchun, turizmdagi yangiliklarni tahlil qilish va baholash uchun aniq ko'rsatkichlardan foydalanish kerak.

Innovatsiyalarni joriy etish har doim turizm korxonalarida muayyan muammolar mavjudligi bilan birga keladi. O'zbekistonda innovatsiyalarni amalga oshirish uchun korxonalar moliyaviy, boshqaruv hamda tashkiliy muammolarga duch keladilar. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida har bir hudud o'z shart-sharoitidan kelib chiqib turizmni rivojlantirishning innovatsion mintaqaviy modelini ishlab chiqishi zarur.

1-chizmada keltirilgan model mintaqaviy turizm innovatsion tizimining umumiy tuzimasini aks ettiradi va uch darajada o'z hissasini qo'shadi: birinchi navbatda, turistik tizimli innovatsiyalarning dinamikasini, uning asosiy aktyorlari (turizm subyektlari)ni, zarur sharoitlarini va paydo bo'lishini aniqlash modeli hisoblanib, jarayonlar innovatsiyalarni

yaratishga olib keladi, ikkinchidan, ushbu konseptual model turizm va innovatsiyalar bo'yicha empirik tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlashi mumkin, uchinchidan, turizm sohasidagi innovatsiyalarga oid siyosat va strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

MINTAQAVIY TURISTIK DESTINATSIYA



systems. p 77. 2012

Ushbu sayyohlik tarmog'i, agar to'g'ri ishlasa, innovatsiya uchun qulay shart-sharoit yaratilib, har bir aktyorga va butun bir destinatsiyaga foyda keladi. Mintaqaviy innovatsion tuzilma turistik hududlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi, ular mintaqaviy turistik innovatsion tizim sharoitida innovatsiyalarni rivojlantirish yo'lidagi hamkorlik va tarmoqlarni rivojlantirishga yordam berishi kerak. Ushbu muhim shart-sharoitlar:

- ✚ turistik yo'nalishlarning jozibadorligi va yangi mahsulotlar yaratishning asosiy omillari bo'lgan tabiiy resurslarning mavjudligi;
- ✚ Innovatsion jarayonlarga jalb qilish uchun yuqori malaka va qobiliyatga ega bo'lgan kadrlar;
- ✚ Innovatsion yo'nalishdagi aloqalar va hamkorlik kelishuvlari;
- ✚ Ijtimoiy kapital, ya'ni, turizm sub'ektlari tarmoqning bir qismi bo'lishidan olishlari mumkin bo'lgan o'zaro manfaatlar;
- ✚ Yangi bilimlarni yaratadigan va uni butun tizim elementlari bilan bo'lishadigan bilim infratuzilmasi;
- ✚ Jamoaviy ta'limni kuchaytiradigan ishonch, hamkorlik va almashinuvga asoslangan mintaqaviy madaniyat;

✚ Tizim normalarini shakllantiruvchi va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi muassasalar;

✚ Innovatsion g'oyalar manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan boshqa sohalar.

Natijada, yangilik kiritmaydigan firmalar, o'z vaqtida bilimlarni yaratish va almashish hamda jamoaviy o'rganish jarayonlari orqali innovatsion salohiyatini va raqobatbardoshligini oshiradilar.

Buxoro viloyatidagi ziyoratgohlarda innovatsion dasturlarni amalga oshirishda quyidagi muammolarga duch kelinadi:

- *moliyaviy*, rivojlanishning innovatsion yo'nalishlari uchun mablag' yetishmasligi, innovatsiyalarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag' uning mazmuniga nomuvofiqligi;

- *menejment*, xodimlar motivatsiyasining yetishmasligi, xodimlarning yangi, g'ayrioddiy turlarni rivojlantirish tashabbuslari, xodimlarning malakasi, o'zgacha yangiliklarga talab kamligi, innovatsiyani yetarlicha ishlab chiqmaslikdan kelib chiqadigan loyihaning boshqarilmasligi;

- sayyohlik agentliklari rahbariyatining yagona axborot resursini yaratish borasidagi sa'y-harakatlarni birlashtirish nuqtai nazaridan *tashkiliy*, tashabbuskorligi.

Ushbu muammolar nafaqat ziyoratgoh darajasida, balki hudud darajasida ham hal qilinishi zarur. Innovatsion faoliyatni sifat jihatidan o'zgartirish uchun o'z va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarishni texnologik modernizatsiya qilish dasturlarini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash, korxonalarni tarkibiy qayta qurish, innovatsiyalarga yo'naltirilgan tadbirkorlikni rag'batlantirish dasturlari bo'lishi, qonunchilik bazasini kuzatish, rivojlantirish va to'ldirish uchun davlat innovatsiyalarni rivojlantirish maqsadida qulay sharoit yaratishi kerak, eng asosiysi uning bajarilishini nazorat qilinishi darkor. Shuningdek, mintaqa darajasida innovatsiyalarni joriy etish muammosini innovatsion infratuzilmani rivojlantirish orqali hal qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. 2021-yil 24-fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. 2022-yil 30-aprel.
3. Alaverdov, E., & Bari, M. W. (Eds.). (2020). *Global Development of Religious Tourism*. IGI Global.
4. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/pilgrimage>
5. Fernandes, C., Pimenta, E., Gonçaves, F., & Rachão, S. (2012). A new research approach for religious tourism: the case study of the Portuguese route to Santiago. *International Journal of Tourism Policy*, 4(2), 83-94.



6. Райзберг Б. А. Современный экономический словарь. М.: ИНФРА-М, 2017. С. 173.
7. Navro'z-zoda B.N., Ibragimov N.S. Turistik hudud raqobatbardoshligining ko'p darajali modeli. Monografiya. - Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy". Durdona nashriyoti. 2018. - 160 b.
8. Filipa Brandão, Costa. Innovation in tourism: the role of regional innovation systems. p 77. 2012.
9. Olimovich, D. I., Khabibovna, K. M., & Alimovich, F. E. (2020). Innovative ways of reducing tourism seasonality of tourist areas. *Достижения науки и образования*, (1 (55)), 12-13.
10. Olimovich, D. I., Khabibovna, K. M., & Samadovich, R. S. (2020). Improving tourist season in Bukhara region. *Вестник науки и образования*, (1-2 (79)), 9-11.
11. Ibragimov, N., & Kurbanova, M. (2016). Destination marketing approach of enhancing the competitiveness of Bukhara tourist destination. *Наука. Мысль: электронный периодический журнал*, (9), 105-109.